



Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi

MUZLATILGAN YARIM TAYYOR KOTLETLAR ISHLAB CHIQRISH LOYIHASI



TOSHKENT – 2024-YIL



UO'K _____
KBK _____
Q _____

O'quv qo'llanma "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB va "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ muassisligida tayyorlandi hamda nashr ettirildi.

Muallif

Rashidov F.I. - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi O'qitish ishlarini tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Loyiha ishtirokchilari:

Otamurodov J.Y., Babamuhamedov A.A. – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimlari

Taqrizchi:

Rizaev N.K. - O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi, "Buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrirchi:

Dilfuza Narxujayeva – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimi

Ushbu o'quv qo'llanma Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi ijro organi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

**O'quv qo'llanma Biznesni Rivojlantirish Banki va
Kichik Biznesni Rivojlantirish Jamg'armasi tuhfasi hisoblanadi.**

ISBN _____

© "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB -2024
© "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ - 2024

Mazkur o'quv qo'llanma kichik biznes tadbirkorlari uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan kichik biznes tadbirkorlari o'z biznes loyihalarini tashkil etish uchun dastur sifatida foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son, "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son, "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 15-noyabrdagi PQ-366-son, "2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida" 2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-son Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 20-yanvardagi 37-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoat Rivojlanishi Tashkilot (UNIDO) talablari asosida tuzilgan bo'lib, 60411300-"Biznesni boshqarish" (Bakalavriat), 70411301-"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish" (Magistratura) hamda 08.00.15-"Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" (Doktorantura) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar ham o'quv qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada loyihani tashkil etish, biznes yuritish, loyihani boshqarish, loyihani menejmenti va marketingi, loyihani texnik jihatlar, texnologik jihozlar va texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish rejasi, ta'minot rejasi, HR-rejasi, moliyaviy rejasi, loyihaning zararsiz ishlash nuqtasi, loyihani rentabelligi, NPV va IRR koeffitsiyentlari, loyihani o'zini-o'zi qoplash muddati masalalari yoritib berilgan.



HURMATLI BIZNES VAKILLARI!

Ma'lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to'liq shakllanib ulgurmaydi, desak, adolatdan bo'ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo'yicha yaxlit eko-tizim yaratiladi.

Buning uchun, eng avvalo, "Qishloq qurilish bank"ni "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo'ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan

tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, hududlardagi Kichik biznes markazlarida o'qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, Kichik biznes markazlari ko'magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatiladi. Bunda yangi korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotini realizatsiya qilishga Markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu korxonalarga davlat xaridlari tizimida o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan sotishga ruxsat beriladi.

To'rtinchidan, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga "Biznesni rivojlantirish banki"ga hissador bo'lib kirish huquqi beriladi.

Beshinchidan, yangi tizimni joriy etish bo'yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar soddalashgan tartibda belgilanadi.

Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektini "oyoqqa turg'izish", kamida 25 mingtasini o'rta korxonalarga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o'rni yaratishdan iborat.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz
tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan
uchrashuvdagi nutqidan**

18.08.2023



MUNDARIJA

Moliyaviy termin va atamalarning glossariysi	8
1. Loyiha maqsadi	10
1.1. Loyiha maqsadi	11
2. Loyiha tashabbuskori	12
2.1. Loyiha tashabbuskori	13
3. Loyiha strategiyasi	14
3.1. Loyiha strategiyasi	15
4. Mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish	16
4.1. Mahsulot haqida	17
4.2. Xom-ashyo haqida	20
4.3. Jihoz va uskunalar. Ishlab chiqarish jarayoni	23
4.4. Infrastruktura	31
5. Marketing konsepsiyasi	34

5.1. Marketing konsepsiyasi	35
6. Ishlab chiqarish rejasi	40
6.1. Ishlab chiqarish rejasi	41
7. HR rejasi	44
7.1. HR rejasi	45
8. Ta'minot rejasi	46
8.1. Ta'minot rejasi	47
9. Moliyaviy reja	48
9.1. Moliyaviy reja	49
9.2. Loyihani amalga oshirish uchun olinadigan kredit shartlari	50
9.3. Loyihani moliyalashtirish: moliyalashtirish mexanizmi va manbalari	52
10. Xulosalar	54
11. Loyihaning hisob-kitob qismi	58



MOLIYAVIY TERMIN VA ATAMALARNING GLOSSARIYSI

Atama nomi	Kengaytmasi	O'zbek tilidagi ma'nosi
PV	Present Value	Kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.
NPV	Net Present Value	Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich yillar davomidagi pul oqimlarini joriy qiymati va biznesga kiritilgan sarmoyaninig farqi sifatida aniqlanadi.
IRR	Internal Rate of Return	Investitsiyalarning ichki daromadlilik darajasi (IIDD) yoki ichki rentabellik darajasi potentsial investitsiyalar rentabelligini baholash uchun moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichdir. IRR diskontlangan pul oqimlarini tahlil qilishda barcha pul oqimlarining sof joriy qiymatini (NPV) nolga tenglashtiradigan diskont stavkasi.
Diskontsiz kummulyativ saldo		Pul oqimini boshqarish va moliyaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan o'lchovdir. Bu ko'rsatkich pul oqimlarini ma'lum bir muddatga qoldig'ini ko'rsatadi.
Diskontli kummulyativ saldo		Diskontni hisobga olgan holda jamlangan qoldiq - bu diskont stavkasini hisobga olgan holda har bir kichik davr oxirida to'plangan pulning umumiy miqdorini baholash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.





1. LOYIHA MAQSADI



1. 1. LOYIHA MAQSADI

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarishni tashkil etishdir.

Bundan tashqari, loyihani ishga tushirish orqali respublika aholisining ushbu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hamda yangi ish o'rinlari yaratish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish uchun imkoniyatlar yaratish maqsad qilingan.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun, muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarish uskunalari to'plamini xarid qilish va investitsion davrda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida, umumiy qiymati 300 mln so'm miqdorida investitsiya (bundan 170 mln so'm bank krediti) mablag'larini jalb qilish rejalashtirilgan.

(ming so'mda)

Nomi	Summa	Loyihada ishtirok etish			
		Kredit	%	O'z mablag'lari	%
Muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarish uskunalari to'plami	170 000	170 000	100%	-	0%
Aylanma kapital	99 400		0%	99 400	100%
Investitsion davrda kredit foizlari to'lovi	30 600		0%	30 600	100%
Jami	300 000	170 000	57%	130 000	43%

Loyiha tashabbuskoriga ushbu loyihani amalga oshirish eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi.



2. LOYIHA TASHABBUSKORI



2.1. LOYIHA TASHABBUSKORI

Loyiha tashabbuskorining asosiy faoliyatiga muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan va tashkilot ustaviga muvofiq boshqa faoliyat turlari kiradi.

Loyiha tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab tadbikorlik subyekti hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori xo'jalik faoliyatini o'zini-o'zi ta'minlash va o'zini-o'zi moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida milliy va chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

Loyihaning joriy faoliyatini boshqarish nafaqat menejment sohasida, balki ishlab chiqarish sohasida tajribaga ega bo'lgan direktor tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.





3. LOYIHA STRATEGIYASI



3.1. LOYIHA STRATEGIYASI

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarning asosiy vositalaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosati hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda juda qulay investitsiya muhiti yaratildi, bu birinchi navbatda, har qanday strategik investor uchun muhim bo'lgan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Kichik biznesni rag'batlantirishning mavjud choralari va kichik biznes loyihalariga imtiyozlar berilishi loyihani yaratishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu loyiha doirasida loyiha tashabbuskorining strategik maqsadi ushbu biznes loyiha uchun qulay hududda muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarish loyihasini tashkil etishdan iborat.





4. MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL QILISH



4.1. MAHSULOT HAQIDA

Zamonaviy dunyoda hayotning yuqori sur'at bilan o'tishi sababli odamlar ovqat tayyorlash uchun yetarli vaqtga ega emaslar, tadqiqotlar yarim tayyor mahsulotlarga talabning doimiy o'sishini ko'rsatadi. Bunday holat go'shtli yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sexi tadbirkorlik subyekti sifatida istiqbolli yo'nalish bo'lib, egasiga katta foyda keltirishidan dalolat beradi. Bunday loyihaning ishga tushirilishi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki bu yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakat byudjetiga tushumlarni oshirish imkonini beradi.

Yarim tayyor mahsulot nima?

Yarim tayyor mahsulotlar oddiy manipulyatsiyalar orqali tayyor ovqatga aylantiriladigan mahsulotlardir. Ular yuqori tezlikda tayyorlanishi bilan ajralib turadi, shuning uchun bu turdagi mahsulot so'nggi paytlarda tobora ommalashib bormoqda. Ishlab chiqarish go'sht yoki boshqa xom-ashyolardan amalga oshirilishi mumkin, ya'ni tabiiy yoki qayta ishlangan mahsulot. Mahsulotning o'ziga xos xususiyati uning ishlab chiqarish sexida portsiyalarga ajratilishidir. Tayyor mahsulot quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflanadi:

- qo'llanilgan ishlab chiqarish jarayoniga ko'ra (tabiiy, maydalangan);
- hayvonlar go'shti uchun (quyon go'shti, mol go'shti, qo'y go'shti, tovuq go'shti);
- harorat holatining xususiyatlariga ko'ra (sovutilgan, muzlatilgan).

Yarim tayyor mahsulotlar ichida muzlatilgan kotletlar eng ko'p



tarqalgan turlaridan biridir. Muzlatilgan kotletlar – turli xil go'shtli taomlarni tayyorlash uchun ishlatilishi mumkin bolgan qayta ishlangan oziq-ovqat mahsuloti.

Muzlatilgan kotletlarni tovada qovurish, qasqonda pishirish, sous bilan dimlash mumkin. Taomning ta'mi nafaqat pishirish usuliga, balki yarim tayyor mahsulotlarning sifatiga ham bog'liq.

Kotletlarni tayyor holda sotib olish yoki uy sharoitida qiyma go'shtidan tayyorlash va kelajakda foydalanish uchun muzlatish mumkin.

Mahsulotlarning ta'mini saqlab qolish uchun pishirish jarayonida kotletlarni muzdan eritish kerak emas. Eritish va keyin yana muzlatish kotletlarning ta'mini yomonlashtiradi.

Kotlet so'zi (fran. "côtelette") fransuzcha "côtelé" - qovurg'ali yoki "côte" - qovurg'a so'zidan kelib chiqqan. Ushbu kotletlarni tayyorlash mumkin bo'lgan go'sht qismi ham "côtelette" deb atalgan.

"Kotlet" taomining o'zi 18-asrlarda rus oshxonasiga Yevropa oshxonasidan kirib kelgan. Va xuddi Yevropada bo'lgani kabi, Rossiyada ham kotlet dastlab qovurg'a, suyagi bo'lgan go'sht bo'lagi sifatida tushunilgan. Biroq, 19-asrning birinchi yarmida "tug'ralgan kotletlar" paydo bo'ldi, ularni tayyorlash uchun go'sht pichoq bilan mayda to'g'ralgan. Bunday turdagi kotletlarga eng mashhur misol Pojarskiy kotletlari bo'lib, ular birinchi bo'lib Torjok shahrida mehmonxona va tavernaga ega bo'lgan Yevdokim Pojarskiy tomonidan yaratilgan.

Kotletlar uchun go'shtni qo'lda maydalash kerak bo'lgan paytlarda, ular juda qimmat taom bo'lib hisoblanardi. Keyinchalik mexanik (qo'lda boshqariladigan), so'ngra elektr go'sht maydalagichlarning paydo bo'lishi bilan kotletlar ommaviy taomga aylandi. Bunga, shuningdek, go'shtning butun bo'lagidan

farqli o'laroq, qiyma go'shtni dastlab tejamkorlik maqsadida non, mayda tug'ralgan sabzavot mahsulotlari bilan aralashtirish mumkinligi ham yordam berdi. Asta-sekin bu qo'shimchalar ta'm jihatdan qimmatli qo'shimcha sifatida qabul qilina boshladi va kotletlarning ajralmas qismiga aylandi.

Bugungi kunda Rossiyada va MDH hududlarida kotletlar qiyma go'sht (mol go'shti, qo'y go'shti), parranda go'shti (tovuq, kurka) va baliq qiymasidan tayyorlanadi. Kotlet tayyorlash uchun go'sht qiymalanadi va boshqa ingredientlar bilan aralashtiriladi: tuxum, non bo'laklari yoki maydalangan (ixtiyoriy go'sht maydalagich orqali) sut qo'shilgan oq non, mayda tug'ralgan yoki maydalangan piyoz, ba'zan sarimsoq, kartoshka, pishloq, ziravorlar, tuz va boshqalar bunga misol bo'ladi.

Qiyman tayyorlangan kotletlar oz miqdorda yog' solingan tovada, baland olovda, tova qopqog'ini yopmasdan, ikki tomoni qovurib pishiriladi. Keyin tovani qopqog'ini yopib, tayyor holga





kelguncha past olovda pishiriladi. Bu vaqtda kotletlarga sous yoki smetana quyib, ularni dimlash mumkin. Ba'zi hollarda kotletlar maxsus bug'da pishiriladi yoki bug'lanadi. Kotletlar ko'pincha oval shakliga ega bo'ladi, bu kotletlarni qovurish uchun qulay bo'lgan shakl hisoblanadi.

4.2. XOM-ASHYO HAQIDA

Qiyma (lotincha farcire - "to'ldirmoq" yoki fransuzcha Farce - "to'ldirish" so'zidan olingan) - maydalangan xom go'sht (mol, qo'y, parranda go'shti va hokazo), turli xil taomlar tayyorlash uchun yarim tayyor mahsulot sifatida ishlatiladi.

Qiyмага tuz, qalampir va boshqa tarkibiy qismlar qo'shiladi, so'ngra turli xil taomlar tayyorlash uchun ishlatiladi.

Qiymadagi foydalikimyoviy komponentlarning konsentratsiyasi tanlangan go'sht va uning sifatiga bog'liq. Eng foydali yarim



tayyor go'sht mahsulotlari – tovuq yoki kurka go'shti hisoblanadi. Ularning asosiy afzalliklari – ozuqaviy qiymati yuqoriligi va past kaloriyaliligi hisoblanadi.

Qiyma inson organizmi tomonidan juda yaxshi o'zlashtiriladi. U parhezli taomlar menyusiga qo'shiladi. Keksalar, parhezdagi insonlar, hamda oshqozon-ichak kasalliklari bilan og'rigan bolalar uchun ham tavsiya etiladi. Qiyma ko'plab mikroelementlar (fosfor, kaliy, magniy, temir, yod), oqsil, E, A, B guruhi vitaminlari manbai hisoblanadi.

Qiymani turli usulda qaynatib, qovurib, dimlab pishirish mumkin. Qiymadan tayyorlanadigan eng keng tarqalgan retsept bu kotlet hisoblanadi. Qiymadan yana teftel, bifshteks, pirog, lazanya, rulet va boshqa ko'plab taomlar ham tayyorlanadi.

100 gr qiymaning energetik quvvati				
Kaloriyaliligi	Oqsillar	Yog'lar	Uglevodlar	Glikemik indeks
241 kkal	24 gr	15 gr	0 gr	0 gr

Muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarish zanjirini yaratish respublika xalq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega. Mahalliy ishlab chiqarilgan muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ichki bozorning katta qismini egallashga qodir.

Hozirgi vaqtda respublikada muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va ushbu mahsulotlar importini qisqartirish yo'nalishida bozor tarkibini o'zgartirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Ushbu loyiha faoliyatining uzluksizligi va barqarorligini belgilovchi eng muhim jihatlaridan biri – bu loyihani zarur xom-ashyo bilan uzluksiz ta'minlashdir.

Muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarish uchun asosiy xom-ashyo bu qiyma hisoblanadi. Undan tashqari, kotletlarni tayyorlash uchun:

- tuz;
- piyoz (ba'zan sarimsoq);
- qalampir kerak bo'ladi.

Nomlanishi	O'lchov birligi	Narxi (ming so'm)	Yillik talab(kg)	Yillik qiymati (ming so'm)
Mol go'shtli yarim tayyor kotlet	kg	80	7 280	582 400
Tovuq go'shtli yarim tayyor kotlet	kg	55	15 600	858 000
Jami	X	X	X	1 440 400



4.3. JIHOZ VA USKUNALAR. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI

Muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarish uskunalar to'plami quyidagi uskunalardan iborat:

Nº	Uskuna nomi	Soni (dona)
1	Split-sistema (ishlab chiqarish binosida havoni sovutish tizimi)	1
2	Go'sht maydalagich	2
3	Kotletlarga shakl berish uskunasi	1
4	Muzlatgich	2
5	Qiyma aralashtirgich	1
6	Yarim tayyor mahsulotni qadoqlash uskunasi	1

Muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun yuqoridagi uskunalar to'plamini maqbul yetkazib beruvchidan sotib olish maqsadga muvofiq. Hozirgi vaqtda yurtimizda turli xil uskunalarni yetkazib beruvchi va loyiha tashabbuskoriga uskunalarni to'g'ri ishlatishni o'rgatuvchi injiniring tashkilotlari mavjud.

Muzlatilgan yarim tayyor kotletlar ishlab chiqarish – har doim foyda keltiradigan biznes. Yarim tayyor mahsulotlarga talab yuqori, chunki ular ovqat tayyorlash jarayonini soddalashtiradi. Kotletlar ishlab chiqarish mini zavodini tashkil qilish uchun uskunalar sarmoya kiritish kerak, bu yuqori rentabelli mahsulotlar ishlab



chiqarishga imkon beradi. Zamonaviy uskunalar deyarli to'liq avtomatlashtirilgan va yuqori unumdorlik hamda minimal xizmat ko'rsatish xarajatlari bilan ajralib turadi.

Yaxshi jihozlangan ishlab chiqarish sexi muvaffaqiyatli ishlashning kalitidir

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda qaysi talablarga rioya qilish muhim? Avvalo, xodimlar uchun xavfsizlikni va maydonning sanitariya standartlariga muvofiqligini ta'minlash kerak. Obyektda kuchli ventilyatsiya, havo harorati nazorati tizimi bo'lishi kerak. Bu tizim orqali harorat rejimi nazorat qilinadi - har bir ishlab chiqarish uchastkasida optimal sharoit saqlanadi. Go'sht mahsulotlari saqlanadigan hudud eng sovuq bo'ladi (agar tez muzlatish kameralarini hisobga olmasak). Bunday uchastkalarda harorat +4 darajagacha bo'ladi. Go'sht, qiyma va yarim tayyor mahsulotlar bilan ishlash amalga oshiriladigan joylarda harorat +10 +12 darajagacha ko'tariladi. Ishxonada



sifatli yorug'likni ta'minlash juda muhimdir. Kun davomida tabiiy yorug'lik, kechqurun yaxshi sun'iy yorug'lik bo'lishi kerak. Yorug'lik yetishmasligi jarohatlarga, ko'rish qobiliyati buzilishiga, asab kasalliklariga olib keladi.

Ishlab chiqarish uchun asosiy uskunalar

Yarim tayyor mahsulotlar, kotletlar ishlab chiqarish maxsus uskunalar yordamida amalga oshiriladi. Bunday vazifalar uchun quyidagi uskunalar qo'llaniladi:

- sanoat go'sht maydalagichlari;
- suyak presslash uskunasi (tovuq, baliq uchun);
- turli xil funktsiyalarga ega qiyma go'sht aralashtirgichlari;
- non urvoqlari bilan qoplash uskunasi;
- muzlatgichlar;
- muzlatish kameralari.

Uskunalar sinovdan o'tgan ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan va to'xtovsiz ishlaydigan bo'lishi kerak. Qurilmalarning ishida buzilishlar – ishlamay turib qolishga va zarar ko'rishga olib keladi. Undan tashqari bitta qurilmani ta'mirlash uchun butun ishlab chiqarish jarayonini to'xtatishga to'g'ri keladi, buni esa o'z navbatida hech kim xohlamaydi.

Kotlet ishlab chiqarish uskunolari zanglamaydigan po'latdan tayyorlanadi. Zanglamaydigan po'lat bunday vazifalar uchun asosiy materialdir. Zanglamaydigan po'lat oziq-ovqat mahsulotlariga bevosita teginsa ham uning xususiyatlarini o'zgartirmaydi. Kotlet ishlab chiqarish turar joylardan uzoqda joylashgan hududda amalga oshiriladi.

Go'sht ajratish uskunasi

Kotlet ishlab chiqarish sxemasiga go'shtni bo'laklarga



ajratish, suyakidan tozalash va kesish, go'shtni saralash, go'sht maydalagichdan o'tkazish, ayrim hollarda esa maxsus suyak presslaridan foydalanish kiradi. Keyin qiyma aralashtirgichda aralashtiriladi va tayyorlanayotganda uning harorati nazorat qilinadi. Bu holda ishlatiladigan asosiy kesish asboblari – pichoqlar, maxsus arra va trimmerlar.

Katta bo'laklarni kesish uchun yerga o'rnatiladigan va bir soat ichida bir necha o'nlab katta go'shtlarni kesishi mumkin bo'lgan lentali arralardan foydalanish tavsiya etiladi. Alohida qismlar bilan ishlaganda, qo'lda ushlab turadigan lentali arralardan foydalanish qulay. Kesish uskunalari yengil, yetarlicha yuqori quvvatda ishlashi va xavfsiz bo'lishi kerak.

Go'shtdan suyaklarni ajratish uchun press uskunalar

Go'shtdan suyaklarni ajratish uchun press uskunalari – kotletlar ishlab chiqarish uchun uskuna bo'lib, yarim tayyor mahsulotlar uchun qiyma tayyorlash imkonini beradi. Ba'zi modellar tovuq va baliq bilan ishlash uchun maxsus mo'ljallangan. SUNBY 100



modeli aynan shunday mahsulotlarda go'shtni suyakdan ajratish uchun mo'ljallangan. Uskuna soatiga o'rtacha 500 kg go'shtni qayta ishlashga qodir. Kotlet mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi xom-ashyo sifati ustidan qattiq nazoratni o'z ichiga oladi.

Qiyma tarkibida mayda suyaklar, parchalanmalar va umuman biron bir ortiqcha narsa bo'lmasligi kerak. Shuning uchun bunday qurilmalarning sifati qat'iy talablar qo'yiladi. Ishlab chiqarish sexlarida faqat eng ishonchli uskunalar modellari ishlatiladi, bu esa birinchi martaba mukammal qiyma olish imkonini beradi. Bunday xom-ashyoni keyinchalik qayta tekshirish, qayta ishlash kerak emas.

Professional go'sht maydalagichlar

Kotlet ishlab chiqarish jarayonida maxsus kuchli go'sht maydalagichlar alohida o'rin tutadi. Professional go'sht maydalagichlar tufayli yuqori sifatli suvli (сочный) qiyma olish mumkin. Go'sht maydalagich kotlet tayyorlash mashinasi emas,



U faqat go'shtni maydalaydi. U to'g'ridan-to'g'ri asosiy xom-ashyoni (go'sht bo'laklarini), shuningdek, unga qo'shilishi mumkin bo'lgan boshqa ingredientlarni qayta ishlaydi.

Kotlet ishlab chiqarish uchun qiyma aralashtirgich

Muzlatilgan yarim tayyor kotletlarni ishlab chiqarish ko'plab ingredientlardan tashkil topgan va yaxshilab aralashtirilgan qiyma go'shtdan tayyorlanadi. Mahsulotda turli xil maydalangan go'sht, ziravorlar, sabzavotlar, shuningdek, qo'shimcha tarkibiy qismlar (masalan, soya, pishloq) bo'lishi mumkin. Ko'p narsa mahsulotda ishlatiladigan retseptga bog'liq. Bugungi kunda ishlab chiqaruvchilar mahsulot tarkibi va retseptini turli xil yangiliklar bilan boyitmoqdalar va iste'molchilarga yarim tayyor mahsulotlarning yangi turlarini taklif qilmoqdalar. Qiyma go'shtning optimal tarkibini tayyorlash uchun qiyma aralashtirgichlar kerak. Xom-ashyo kotlet tayyorlash uchun mashinaga kirishdan oldin uni

yaxshilab aralashtirish kerak. Hozirgi kunda ushbu turdagi sanoat tizimlari keng assortimentda taqdim etilmoqda. Ular shpallar va shneklar bilan jihozlanishi mumkin va ilg'or versiyalarda ikkala turdagi komponentlar qo'llaniladi. Qiyma aralashtirgichlari bir va ikki darajali turlarga bo'linadi. Ingredientlarni aralashtirganda, ichkarida vakuum hosil bo'lishi mumkin.

Sotuvda turli xil ishlash prinsipidagi modellarni topish mumkin:

- elektr;
- pnevmatik;
- gidravlik.

Yuqori sifatli qiyma go'sht aralashtirgichlari butunlay zanglamaydigan po'latdan yasalgan bo'ladi. Bu uskunaga texnik xizmat ko'rsatishni sezilarli darajada osonlashtiradi va ishlab chiqarishda tozalikni saqlashga imkon beradi.

Kotletlar ishlab chiqarish mahsulotlarni tayyorlashdan boshlanadi. Buning uchun – tovuq, mol, qo'y va parranda go'shti, shuningdek, baliq go'shti ishlatiladi. Kotletlar faqat go'shtning





o'zidan tayyorlanmaydi. Ba'zi kotletlarga retsept bo'yicha sabzavot (kartoshka) pyurelari, pishloq va boshqa qo'shimcha mahsulotlar qo'shilishi kerak. Faqat go'shtdan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlarning narxi juda yuqori bo'lib ketishi va ularning sotilishi yuqori bo'lmasligi mumkin.

Go'shtdan tashqari, kotletlarga tuz, piyoz (ba'zan sarimsoq) va qalampir qo'shiladi. Bular kotletlarni tarkibiga kiruvchi asosiy mahsulotlardir. Boshqa mahsulotlar retsept bo'yicha qo'shilishi mumkin. Maydalangandan so'ng, bu komponentlarning barchasi qiyma bilan birga qiyma aralashtirgichda, bir jinsli massaga aylanguvcha aralashtirilishi kerak. Aralashtirish jarayonida qiyma kislorod bilan boyitiladi va buning natijasida kotletlar mayin bo'ladi, hamda pishirilganda suvli va ishtahani ochadigan bo'lib chiqadi. Jarayonning davomiyligi 60 soniya bo'lishi kerak. Aralashtirish jarayoni uzoqroq davom etsa, yog' go'shtdan ajralib

chiqadi va aralashtirgich devorlariga yopishib qoladi, buning natijasida tayyor mahsulotlar sifatsiz va quruq bo'lib chiqadi.

Aralashtirilgan qiyma go'sht qoliplash mashinasiga yuklanadi, bu esa pastki qismida teshik bo'lgan bunkerdir. Teshik ostida shakllar joylashgan aylanadigan stol o'rnatilgan. Maxsus pichoq massani bunkerdagi teshikdan pastga, ya'ni shakl beruvchi qoliplarga yetkazib beradi, u yerda avtomatik ravishda (navbatma-navbat) shakllarga kiradi. Shakllangan kotletlar lentaga tashlanadi. Tayyor bo'lgan yarim tayyor mahsulotlar idishlarga joylashtiriladi va past gradusli muzlatish kamerasiga joylashtiriladi.

Mahsulot sifati – tashqi ko'rinishi, mustahkamligi, ta'mi, hidi, organoleptik xususiyatlari va vazni bo'yicha tekshiriladi. Partiyadan tanlangan namunalar namlik, non va tuz miqdori uchun tekshiruvdan o'tadi.

Kotletlarning ta'mi va hidi issiqlik bilan ishlov berishdan keyin tekshiriladi. Taom ziravorlar ta'mi bilan o'rtacha sho'r, konsistensiya – elastik, suvli, non bo'laklaridagi mahsulotlar – oltin-jigarrang tiniq qobiq bilan qoplangan bo'ladi.

Yarim tayyor mahsulotlar 3, 5 yoki 10 donadan qilib, pergament, plastik idish yoki plastik paketlarda qadoqlanadi. Yorliqda yarim tayyor mahsulotning nomi, mahsulotning og'irligi, qachon ishlab chiqarilganligi va saqlash muddati ko'rsatilgan ishlab chiqaruvchi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

4.4. INFRASTRUKTURA

Ushbu loyihada qurilish montaj ishlari amalga oshirilmaydi. Loyihani amalga oshirish uchun maqbul joydan bino ijaraga




olinadi. Ammo jihoz va uskuna binoda joylashishi uchun binoni moslashtirish zarur bo'ladi.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun binolar va joy tanlash alohida e'tibor talab qiladi. Muzlatilgan yarim tayyor kotlet mahsulotlari ishlab chiqarish atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ishlab chiqarishni tashkil etishni faqat barcha xavfsizlik talablari bajarilgan taqdirda amalga oshirish mumkin.


Jihoz va uskuna binoda joylashishi uchun binoni o'lchamlari quyidagicha bo'lishi kerak.

Nº		Balandligi, m	Eni, m	Uzunligi, m	Binoning umumiy maydoni, m ²	Binoni xajmi, m ³
1	Asosiy ishlab chiqarish binosi	8	8	25	200	1600
2	Xom-ashyo omborxonasi	8	4	8	32	256
3	Tayyor mahsulotlar omborxonasi	8	4	8	32	256
4	Ma'muriyat uchun	8	4	9	36	288
5	Jami				300	2400

Bundan tashqari ishlab chiqarish sexi aholi punktlaridan uzoqroqda joylashishi, ushbu hudud 380V li elektr energiyasi va suv ta'minoti bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.



Ishlab chiqarishni tashkil etish binosi to'g'risida ma'lumot





5. MARKETING KONSEPSIYASI



5.1. MARKETING KONSEPSIYASI

Zamonaviy dunyoda loyiha faqat iste'molchilarning talablarini e'tiborsiz qoldirmasa, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Talablarni tadqiq qilish va mijozlarning maksimal talablarini qondirish samaradorligini oshirish uchun yangi mijozlarni qo'lga kiritishni hamda mavjud mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni, mahsulot yetkazib berishni davom ettirmoqchi bo'lgan tadbirkor, ular haqiqatan ham nimani xohlashlarini va ularga nima kerakligini bilishi kerak.

Bozorni segmentatsiya qilish turli xil obyektlar bo'yicha amalga oshiriladi, ammo marketingda eng katta e'tibor iste'molchilarning xohishlariga qaratiladi. Shu bilan iste'molchilar tashkilotning marketing harakatlariga turli xil qarashlari bo'yicha bozorni segmentatsiya qilishi kerak bo'ladi.

Bozor segmenti – o'xshash afzalliklarga ega bo'lgan, bir xil xususiyatlarga xos va marketing takliflariga bir xil javob beradigan iste'molchilar majmui.

Taklif tuzilmasidan kelib chiqib, bozorning quyidagi makrosegmentlarini ajratish kerak:

- **iste'mol bozori**
- **sanoat bozori.**

Iste'mol bozori. Bizning ushbu segmentdagi iste'molchilarimiz respublikaning turli yoshdagi, har xil daromad darajasi va oilaviy ahvoli turlicha bulgan barcha aholisidir.

O'zbekiston aholisi soni bo'yicha MDH mamlakatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. BMT Aholishunoslik jamg'armasining jahon reytingida respublika 41-o'rinni egallaydi.



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 2024-yil 22-aprel holatiga 37 milliondan ortiq kishini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, aholi daromadlari o'sishda davom etmoqda.

O'zbekiston bozorida raqobatchi bo'lgan ko'plab mahalliy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Raqobatchilar
FAVORITE FOOD GROUP XK
NOSIROV-MEAT PRODUCT MChJ
LINA EXCLUSIVE PRODUCT MChJ
MAKIZ BARAKA MChJ
VARIM VA PARIM MChJ
XODJIZADAEVA M. M. YATT
XUDOYBERDI FAYZ SERVIS MChJ
BIG GO GOLD BUSINESS MChJ
DOMASHNIY VKUS OK
ICE AND GOLD MChJ

Ammo bozorda barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarga yetarlicha talab mavjud va keskin raqobat kuzatilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish mavjud standartlarga mos keladigan zamonaviy, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni talab qiladi.

Ushbu loyiha O'zbekiston Respublikasi hududida muzlatilgan

yarim tayyor go'sht (kotlet) mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish orqali O'zbekiston Respublikasining ushbu mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan. Ushbu loyihani amalga oshirish mahalliy va jahon bozorida talab yuqori bo'lgan yuqori sifatli muzlatilgan yarim trayyor go'sht (kotlet) mahsulotlarini ishlab chiqarishga imkon beradi.

Loyiha tashabbuskoriga mahsulot sotilishining asosiy rag'batlantiruvchi omillari quyidagilardan iborat bo'lishi zarur.

- narx;
- sifat.

Loyihaning marketing strategiyasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga, mahsulotning ushbu turiga bo'lgan talabni doimiy ravishda o'rganishga, bozordagi vaziyatga moslashuvchan javob berishga asoslanadi. Shuningdek, loyihaning mablag'larini loyihani kengaytirishga qayta yo'naltirish va shundan kelib chiqib, narxlar siyosati va taktikasining moslashuvchanligiga erishish orqali marketing strategiyasini takomillashtirib borishi kerak.

Ushbu loyiha bo'yicha ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar assortimenti bozorda raqobatchilar tomonidan sotiladigan narxlarning qiyosiy tahlili quyida keltirilgan:

№	Assortiment nomi	O'lchov birligi	Sotish narxi, ming so'm	
			Loyiha tashabbuskorida	Raqobatchilarda
1	Mol go'shtli yarim tayyor kotlet	kg	80	86
2	Tovuq go'shtli yarim tayyor kotlet	kg	55	60



Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, loyiha bozorda o'rtacha xaridor uchun qulay bo'lgan mahsulot sotish narxining pastligi afzalligiga ega.

Bozorni o'rganish va tadbirkorlarning ilg'or tajribasi shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarishni tashkil etishda bozor konyunkturasini doimiy ravishda o'rganish kerak.

Loyiha tashabbuskori quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirishi zarur.

- Mahsulotlarning asosiy xaridorlari ulgurji savdo-tijorat tashkilotlari ekanligini hisobga olgan holda, raqobatchilarning mahsulot yetkazib berish jadvalarini va mahsulotga bo'lgan talab intensivligini, ushbu bozordagi narxlar holatini diqqat bilan o'rganish, uni istiqbolda prognoz qilish va mahsulotlarni yetkazib berish va sotish narxlarini oldindan tuzatish zarur;

- Faol maqsadli reklama ishlarini o'tkazish.

Hududlardan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, sarflangan mablag'larni qaytarishni tezlashtirish uchun so'nggi paytlarda zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilmoqda. Investitsiyalarni qaytish muddati eski texnologiyalar asosida tashkil etilgan korxonalar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada qisqa. Zamonaviy ishlab chiqarish uskunalarning energiya tejaydigan turini qo'llashning maqsadga muvofiqligi aniq.

Muzlatilgan yarim tayyor go'sht (kotlet) mahsulotlari ishlab chiqarish uskunalarning energiya tejaydigan turlari mamlakatimizda hali keng tarqalmagan, ammo so'nggi paytlarda u tobora ommalashib bormoqda. Bu kelgusida mamlakatimiz hududida muzlatilgan yarim tayyor go'sht (kotlet) mahsulotlari turlarining ko'payishiga olib keladi.

Loyiha tashabbuskori o'zining vazifasi maksimal foyda olish

deb bilishi lozim, shu bilan birga mahsulotning narxi iste'molchilar uchun maqbul bo'lishi kerak.

Narxni belgilashning asosiy tamoyili tovarning narxini shunday darajada belgilashdirki, u birinchidan, sotuvchining tovar uchun sarflagan xarajatlarini qoplashi va ikkinchidan, sotuvchi ham, xaridor ham o'zaro foyda (foyda, daromad) olishini ta'minlashi zarur.

Nomlanishi	O'lchov birligi	Maksimal ishlab chiqarishdagi soni	Sotish narxi (ming so'm)	Summasi (ming so'm)
Mol go'shtli yarim tayyor kotlet	kg	7 280	80	582 400
Tovuq go'shtli yarim tayyor kotlet	kg	15 600	55	858 000





6. ISHLAB CHIQRISH REJASI



